

ONA TILI TA'LIMIDA 4K KOMPETENSIYALARINING NAZARIY ASOSLARI

**Boboyeva Nafosat Tulqin qizi,**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ona tili ta'limida 4K kompetensiyalari (tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va kollaboratsiya)ning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim paradigmasi doirasida kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyati ochib berilib, ona tili fanini o'qitish jarayonida 4K kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishda interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda o'quv faoliyatini tashkil etishning samarali usullari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada 4K kompetensiyalarining o'quvchilarning nutqiy, tafakkuriy va ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishdagi o'rni hamda ularning ona tili ta'limidagi ahamiyati tizimli ravishda tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** ona tili ta'limi, 4K kompetensiyalari, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, nutqiy faoliyat, tafakkur rivoji.

**THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF 4C COMPETENCIES IN MOTHER TONGUE EDUCATION**

**Boboyeva Nafosat Tulqin qizi**

master's student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

**Annotation.** This article analyzes the theoretical foundations of 4C competencies (critical thinking, creativity, communication, and collaboration) in mother tongue education. Within the framework of the modern educational paradigm, the essence of the competency-based approach is revealed, and the didactic opportunities for developing 4C competencies in the process of teaching the mother tongue are highlighted. Furthermore, the study provides a scientific justification for the use of interactive methods, innovative pedagogical technologies, and effective ways of organizing learning activities aimed at developing these competencies. The article systematically examines the role of 4C competencies in enhancing students' linguistic, cognitive, and social development, as well as their significance in mother tongue education.

**Keywords:** mother tongue education, 4C competencies, critical thinking, creativity, communication, collaboration, competency-based approach, interactive methods, pedagogical technologies, speech activity, cognitive development.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ 4К-КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ**

**Бобоева Нафосат Тулкин кизи,**

магистрантка Узбекско-Финского педагогического института

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические основы 4К-компетенций (критическое мышление, креативность, коммуникативность и коллаборация) в обучении родному языку. В рамках современной образовательной парадигмы раскрывается сущность компетентностного подхода, а также освещаются дидактические возможности формирования 4К-компетенций в процессе преподавания родного языка. Кроме того, научно обосновываются интерактивные методы, инновационные педагогические технологии и

эффективные способы организации учебной деятельности, направленные на развитие данных компетенций. В статье системно анализируется роль 4К-компетенций в развитии речевой, мыслительной и социальной активности учащихся, а также их значение в обучении родному языку.

**Ключевые слова:** обучение родному языку, 4К-компетенции, критическое мышление, креативность, коммуникативность, коллаборация, компетентностный подход, интерактивные методы, педагогические технологии, речевая деятельность, развитие мышления.

### **.Kirish**

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarni egallashi emas, balki ularni amaliyotda qo'llay olish, mustaqil fikrlash va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, XXI asr ta'limida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilayotgan 4K kompetensiyalari – tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va kollaboratsiya – o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Ona tili ta'limi esa mazkur kompetensiyalarni shakllantirish uchun keng didaktik imkoniyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, tafakkurini boyitish hamda ijtimoiy muloqotga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, matn bilan ishlash, fikrni ifodalash, bahs-munozaralarda ishtirok etish kabi jarayonlar o'quvchilarda 4K kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Ona tili ta'limida 4K kompetensiyalarini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va lingvodidaktikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalarda tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarning intellektual va ijtimoiy faolligini oshirishning muhim omili sifatida talqin etiladi. B. Trilling va C. Fadel tomonidan ilgari surilgan XXI asr ko'nikmalari konsepsiyasida 4K kompetensiyalari zamonaviy ta'limning asosiy tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, T. Wagner va K. Robinson tadqiqotlarida ta'lim jarayonida mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqot kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillariga asoslandi. Ish jarayonida ilmiy-pedagogik hamda lingvodidaktik adabiyotlarni tahlil qilish, ona tili darsliklari va o'quv materiallarini didaktik jihatdan o'rganish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, 4K kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni ishlab chiqishda loyihalash metodidan foydalanilib, olingan natijalar tahliliy yondashuv asosida umumlashtirildi.

XXI asr ta'limining asosiy talabi o'quvchi shaxsida ijtimoiy-faol, kreativ fikrlay oladigan, mustaqil qaror qabul qila biladigan, tezkor axborot muhitida yo'nalish topa oladigan va jamoa bilan samarali ishlay oladigan ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Bunday talablarga mos ravishda zamonaviy ta'lim jarayonida 4K kompetensiyalar tushunchasi shakllangan bo'lib, unga kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, hamkorlik va kollaboratsiya kabi to'rt asosiy kompetensiya kiradi. Ushbu kompetensiyalar bugungi global ta'lim paradigmasining markazida bo'lib, inson salohiyatini rivojlantirishda, yoshlarning kelajak kasb bozorida o'z o'rnini topishida hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda.

4K kompetensiyalari konsepsiyasi birinchi bor rivojlangan davlatlar ta'limi tajribasida, xususan, AQSHning Partnership for 21<sup>st</sup> Century Skills (P21) xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan ilmiy asoslash jarayonida ishlab chiqilgan. P21 modeli ta'limda faqatgina bilimlar emas, balki ularni qo'llay olish malakasi ham asosiy mezon bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, o'quvchi nafaqat grammatik bilimlarga ega bo'lishi, balki muammoni ko'rishi, tahlil qila bilishi, yangi g'oya taklif eta olishi va muloqot jarayonida fikrini asosli tarzda ifoda etishi lozim. Ona tili ta'limi aynan shu jarayonning asosi bo'lib xizmat qiladi, chunki til – fikrlash vositasi, muloqot vositasi, tafakkurning bevosita ko'rinishidir.

Modelning paydo bo'lishiga quyidagi omillar sabab bo'lgan:

- loballashuv jarayonining kuchayishi; g
- xborot texnologiyalarining tez rivojlanishi; a
- ehnat bozorida moslashuvchan kompetensiyalarga ehtiyoj ortishi; m
- n'anaviy yodlashga asoslangan ta'limning samaradorligi pasayishi. a

Natijada ta'lim tizimi bilim berishdan ko'ra kompetensiya shakllantirishga yo'naltirildi. 4K modeli aynan shu kompetensiyaviy yondashuvning markaziy elementi hisoblanadi.

Amerikalik pedagog T. Wagner ham zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarda "yashab qolish ko'nikmalari"ni rivojlantirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, o'quvchilar muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qila olishi, jamoada ishlashi va kreativ fikrlashi zarur. Bu esa bevosita 4K kompetensiyalarining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. K. Robinson esa ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, ijodkorlik insonning tabiiy qobiliyati bo'lib, ta'lim jarayonida uni rivojlantirish o'quvchilarning erkin va mustaqil fikrlashiga yordam beradi.

Ona tili ta'limida 4K kompetensiyalarini shakllantirish, avvalo, o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki ona tili darslari o'quvchilarning tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kompetensiyalarini shakllantiruvchi asosiy fan hisoblanadi. Ayniqsa, matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasi rivojlanadi. O'quvchi matn mazmunini tahlil qiladi, asosiy g'oyani aniqlaydi, muallif pozitsiyasiga munosabat bildiradi hamda mustaqil xulosa chiqaradi. Bu esa o'quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalari, debat va munozara metodlari samarali vosita hisoblanadi. Masalan, o'quvchilarga biror matn yoki hayotiy vaziyat yuzasidan muammoli savollar berilishi ularni mantiqiy va mustaqil fikrlashga undaydi. Shu orqali o'quvchilar tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi va baholovchi subyektg aylanadi.

Kreativlik kompetensiyasi ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. Hikoya tuzish, esse yozish, matnni davom ettirish, obrazli ifodalar yaratish kabi topshiriqlar o'quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi. Ayniqsa, badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning estetik tafakkuri va ijodiy yondashuvi rivojlanadi. Bu borada K.

Robinson “maktablar ijodkorlikni emas, ko‘proq standart fikrlashni shakllantiradi” degan fikrni ilgari surib, ta‘limda kreativ muhit yaratish zarurligini ta‘kidlaydi.

Kommunikativlik kompetensiyasi ona tili ta‘limining markaziy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki ona tili darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishdir. Bahs-munozaralar, taqdimotlar, rolli o‘yinlar va guruhiy muhokamalar o‘quvchilarning erkin muloqot qilish, o‘z fikrini asosli ifodalash hamda suhbatdosh fikriga hurmat bilan yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kollaboratsiya, ya‘ni hamkorlikda ishlash kompetensiyasi ham zamonaviy ta‘limning muhim talabi hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyatda muvaffaqiyatga erishish ko‘p jihatdan jamoa bilan ishlash qobiliyatiga bog‘liq. Ona tili darslarida guruhiy topshiriqlar, loyiha ishlari va jamoaviy faoliyatlar orqali o‘quvchilarda hamkorlik ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bunday faoliyat jarayonida o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadi, vazifalarni taqsimlaydi va umumiy maqsad sari birgalikda harakat qiladi. Bu esa ularda mas‘uliyat, bag‘rikenglik va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.

O‘zbek olimlari tomonidan ham kompetensiyaviy yondashuv va nutqiy faoliyatni rivojlantirish masalalari keng o‘rganilgan. Jumladan, N. Mahmudov, A. G‘ulomov, H. Ne‘matov kabi metodist olimlar ona tili ta‘limida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muhimligini ta‘kidlaydilar. Olimlarning fikricha, ona tili darslari faqat grammatik bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarning erkin fikrlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishi zarur. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida e‘tirof etiladi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Debat”, “FSMU”, “Insert” kabi metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, mustaqil va ijodiy fikrlashiga imkon yaratadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa o‘quvchilarning kommunikativ va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili ta‘limida 4K kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta‘limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va kollaboratsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual, nutqiy va ijtimoiy faolligini oshiradi. Ona tili darslarida interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkor va faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois ona tili ta‘limida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimni takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

#### **Natijalar va muhokamalar**

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ona tili ta‘limida 4K kompetensiyalariga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarning nutqiy va tafakkuriy faoliyatini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, erkin muloqot qilishi va darsdagi faolligini oshirdi. Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari shakllandi, ijodiy topshiriqlar esa kreativlik kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qildi. Guruhiy ishlash va taqdimotlar orqali kommunikativlik hamda hamkorlik ko‘nikmalari rivojlandi. Tadqiqot natijalari ona tili ta‘limida 4K kompetensiyalarini qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. San Francisco: Jossey-Bass, 2009. 256 p.
2. Wagner T. The Global Achievement Gap: Why Even Our Best Schools Don't Teach the New Survival Skills Our Children Need. New York: Basic Books, 2008. 303 p.
3. Robinson K., Aronica L. Creative Schools: The Grassroots Revolution That's Transforming Education. New York: Viking, 2015. 320 p.
4. Mahmudov N. Til va nutq. Toshkent: O'qituvchi, 2013. 224 b.
5. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. 256 b.
6. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq ta'limi nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2004. 240 b.
7. Muslimov N., Usmonboyeva M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Sano-standart, 2016. 208 b.
8. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006. 260 b.